



## BIOAESTHETICS: A NEW PARADIGM OF HUMAN, NATURE, AND ECOLOGICAL CONSCIOUSNESS

**Gulchehra Bahodirjonovna Umaraliyeva**

Senior Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

E-mail: [umaraliyevab@mail.ru](mailto:umaraliyevab@mail.ru)

Tashkent Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** bioesthetics, civilization, nature, society, development, biopolitics, value aesthetic education.

**Abstract:** This article covers the concept of bioaesthetics and its essence, form and movement harmony. The relationship between the concepts of form and movement is shown, and bioaesthetics is a science that studies beauty. It was shown through comparative analysis that bioaesthetics is a component of aesthetics, beauty and its laws cannot be understood without aesthetic knowledge.

**Received:** 11.12.25

**Accepted:** 12.12.25

**Published:** 13.12.25

## BIOESTETIKA: INSON, TABIAT VA EKOLOGIK ONGNING YANGICHA PARADIGMASI

**Gulchehra Bahodirjonovna Umaraliyeva**

O'zDSMI "Ijtimoiy-gumanitar fanlar"

kafedrasi katta o'qituvchisi

[umaraliyevab@mail.ru](mailto:umaraliyevab@mail.ru)

Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Bioestetika, xarakter, shakllari, go'zallik, estetik faoliyat.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bioestetika tushunchasi va uning mohiyati, inson va tabiat munosabatlarining mazmuni va mohiyati yoritiladi. Bioestetika estetikaning tarkibiy qismi ekanligi, estetik bilimlarsiz go'zallik, uning qonuniyatlarini anglab bo'lmashligini qiyosiy taxlillar orqali ko'rsatib berildi.

## БИОЭСТЕТИКА: НОВАЯ ПАРАДИГМА ЧЕЛОВЕКА, ПРИРОДЫ И ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ

**Гульчехра Баходиржонова Умаралиева**

*Старший преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук*

*Государственный институт искусств и культуры Узбекистана*

*Электронная почта: [umaraliyevab@mail.ru](mailto:umaraliyevab@mail.ru)*

*Ташкент, Узбекистан*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** биоэстетика, цивилизация, природа, общество, развитие, биополитика, эстетическое образование.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается понятие биоэстетики и ее сущность, форма и гармония движений. Показана взаимосвязь понятий формы и движения, а биоэстетика – наука, изучающая красоту. Путем сравнительного анализа показано, что биоэстетика является неотъемлемой частью эстетики, красоты, и ее законы невозможно понять без эстетических знаний.

**Kirish.** Bioestetika – bu insonning tirik tabiatga bo‘lgan estetik munosabatlarini o‘rganuvchi fan sohasidir. Tabiatning go‘zalligi, uning turli ko‘rinishlariga bo‘lgan his-tuyg‘ular insoniyat tarixi davomida doimo e‘tibor markazida bo‘lgan. Bioestetik qadriyatlar esa bu munosabatlarning mahsuli bo‘lib, o‘z navbatida, insonning tabiat bilan o‘zaro aloqalarini shakllantiradi. Bioestetika estetikaning tarkibiy qismi ekanligi, estetik bilimlarsiz go‘zallik, uning qonuniyatlarini anglab bo‘lmashligini qiyosiy taxlillar orqali ko‘rish mumkin. Bioestetika insonning go‘zallikni anglashi va uni yaratishga intilishi bilan bog‘liq fandir. U tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlikni o‘rganadi va estetik tarbiya jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Qadimgi Sharq va Yunon falsafasida tabiatning go‘zalligi, uning inson hayotiga ta’siri haqida ko‘plab fikrlar bildirilgan. Aristotel tabiatdagi uyg‘unlik va maqsadga muvofiqlik orqali go‘zallik namoyon bo‘lishini ta’kidlagan. Platon esa go‘zallikni mutlaq g‘oya sifatida ko‘rib, uning manbai ilohiylik va tabiat uyg‘unligi ekanini qayd etgan. Arastuning badiiy-estetik qarashlari “Ritorika” 1-kitobining 9-faslida ham ravshan ifodasini topgan. Bu yerda donishmand epideyktiv (tarbiyaviy) nutq so‘zlovchi notiq bilishi zarur bo‘lgan ajiblik, ezgulik, go‘zallik, insoniy fazilatlar va uning turli darajalari, maqtovli qilmishlari haqida fikr yuritadi. Arastu shu faslda ajoyiblik, barkamollik, go‘zallikning bunday tar’ifini beradi: “Go‘zallik o‘zicha yoqimli, maftunkor bo‘lish bilan birga yana maqtovga loyiqdir yoki o‘zicha tabiiy ne‘mat (adatos) bo‘lgani uchun ham yoqimli bo‘ladi. Go‘zallik tushunchasining ma’nosi shunday ekan, demak inson uchun fazl fazilat (azetas) ham go‘zallik va ne‘mat, ezgulikdir”. [1] Bioestetik qadriyatlar insonning tabiat bilan o‘zaro munosabatlarining uzoq va murakkab tarixi davomida shakllangan. Bioestetika – bu insonning tirik tabiatga bo‘lgan estetik munosabatlarini

o'rganuvchi fan sohasidir. Tabiatning go'zalligi, uning turli ko'rinishlariga bo'lgan his-tuyg'ular insoniyat tarixi davomida doimo e'tibor markazida bo'lgan. Bioestetik qadriyatlar esa bu munosabatlarning mahsuli bo'lib, o'z navbatida, insonning tabiat bilan o'zaro aloqalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Inson tabiatning bir bo'lagi sifatida o'zini tushunib, unga sig'inib kelgan. Tabiat kuchlariga ishonib, ularni tinchlantirish maqsadida turli marosimlar o'tkazish, tabiatga bag'ishlangan san'at asarlari yaratish bioestetik qadriyatlarning ilk namunalari hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda ekologik muammolarning keskinlashuvi bioestetik qadriyatlarga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. Insonlar tabiat bilan uyg'unlikda yashash, uning go'zalligini saqlab qolish zaruriyatini anglab yetishmoqda. Bioestetika ekologik tarbiya, landschaft dizayni, ekoturizm kabi sohalarda keng qo'llanilmoqda. Inson tarixi davomida tabiat va go'zallikka munosabat doimiy e'tibor markazida bo'lib kelgan. Falsafiy fikrda ham, adabiyot va san'atda ham tabiatning go'zalligi, uning inson ruhiyatiga ta'siriga katta ahamiyat berilgan. Shu ma'noda bioestetika - tabiat va go'zallik uyg'unligini tadqiq etuvchi fan sifatida shakllandi. Uning tarixi qadimgi davrlardan boshlanib, zamonaviy ekologik va ma'naviy muammolarga yechim izlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. XVI–XIX asrlarda tabiatshunoslik va estetika alohida fan sifatida rivojlandi. Iogann Volfgang Gyote tabiatni biologik va estetik jihatdan o'rganish zarurligini ta'kidladi. Ma'rifat davri mutafakkirlari inson va tabiat munosabatini axloq, go'zallik va erkinlik mezonlari asosida izohladilar. Ekologik muammolar kuchayishi bioestetik qarashlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Falsafada inson va tabiat munosabatlari masalasida Sharq faylasuflaridan Ibn Sino (Inson va tabiat munosabatida jism, aql va ruh uyg'unligini taxlil qiladi), Ibn Rushd (Inson barcha tabiat qonunlarini aql orqali tushunishi mumkinligini xulosa qiladi), bilan bir qatorda G'arb faylasuflari ham turli tadqiqotlar olib borishgan. Xususan, Aristotel (Insonning asosiy maqsadi kamolotga yetishish. Inson kamoloti esa jamiyat bilan uyg'unlasha olishiga bog'liq) [2], Gegel (Inson va tabiat munosabati- dialektik taxlillar orqali tushuntiriladi, inson tabiatdan ruhiy taraqqiyot yuqoriligi bilan ajralib turadi. Inson ongli ravishda tabiatga ta'sir ko'rsatadi) [3], F.Nitsche (Inson tabiati kuchli irodaning belgisi, xissiyotlarni eng yuqori xolatga ko'tara oladigan mavjudot sifatida o'rganadi) [4], E. Kant ( Kant inson va tabiat munosabatini axloqiy qonunlar jamlanmasi sifatida tadqiqotolib borib, insonni tabiatning ajralmas bir bo'lagi deb hisoblaydi). Tabiat go'zalligini va undagi mo'jizaviy xosiyatlarni taxlil qiladi [5], J.J.Russo (Insonni tabiiy xolatida yaxshi va erkin bo'la olishligini aytadi) [6], M.Xaydeger (Tabiat va inson borlig'ining uyg'unligi asoslab, insonning tabiatdan uzilib qolishi ma'naviy inqirozga olib kelishi mumkinligini ta'kidladi) [7], F.Gvattari (Ekologik estetikani tadqiq etgan va tabiatning go'zalligini san'at va madaniyat orqali yoritgan) [8], T.Morton (tabiat va inson munosabatlarida -tabiatning go'zalligini insonga ta'sirini yoritadi, giperobyekt [9] tushunchasini yoritadi) [10], L.Tolstoy ( Tabiat- ma'naviy poklik va

oddiylik harakteriga ega bo'lgan tushuncha, U insonlarni tabiat bilan uyog'un holda yashashga chaqiradi), K.Marks (Tabiat va inson munosabatlarini asosini mehnat tashkil qiladi, tabiat inson bilan dialektik bog'lanadi).

Yuqorida nomlari keltirilgan faylasuflar o'zlarining nazariyalari va asarlari orqali bioestetikaning rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shakl va harakat uyg'unligi bioestetikaning muhim jihatidir, chunki bu insonlar va tabiat o'rtasidagi aloqani chuqurlashtiradi. Bioestetika, tabiat va go'zallikni faqat iqtisodiy yoki utilitar maqsadlarda emas, balki estetik jihatdan qadrlashni ta'kidlaydi. Bu tushuncha san'at, ekologiya va antropologiya kabi sohalar bilan bog'liq bo'lib, tabiatni va uning go'zalligini saqlashga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi. Bu tushuncha bir necha jihatlarni o'z ichiga oladi, tabiatdagi o'simliklar va hayvonlar shakli, ularning harakatlari va bu harakatlar orqali shaklning o'zgarishi, go'zallik va estetik tajribalarga ta'sir qiladi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar odamlarning tabiatdagi shakl va harakatlarni tushunishi, ularni estetik jihatdan qadrlash va tabiat bilan uyg'unlikda yashashni rag'batlantiradi.

Doktor Robert Li fikricha "Bioestetika-go'zallik haqidagi umumiy bilim. U go'zallik haqida, uning qonun-qoidalari, normalari, tabiat va borliqqa munosabati, ta'sirlanishi, xulosa chiqarishidir..", "Go'zallikni keltirib chiqaruvchi sababni ko'rsatish uchun, bu aniq proporsiyalarni o'zida mujassam etgan odamning go'zal ekanligini ko'rsatish zarur (men nazarda tutganim, bu go'zallik, yoki tananing biror qismi alohida ko'rib chiqilganda, yoki tananing butunlayi ko'rinishi tufayli paydo bo'lgan ko'rish ta'siridir). Shuningdek, bu tananing qismlari bir-biriga nisbatan shunday joylashgan bo'lishi kerakki, ular o'rtasida osonlik bilan taqqoslash o'rnatish mumkin bo'lsin va natijada ular ruhga ta'sir qiladi. O'zim esa turli vaqtlarda bu nisbatlarning ko'pini juda chuqur o'rganib chiqdim va ularning ko'plab subyektlarda juda yaqin yoki butunlay bir xil ekanligini aniqladim, garchi ular o'rtasida katta farqlar bo'lsa ham, va hatto biri go'zal bo'lsa ham, boshqasi go'zallikdan juda uzoq bo'lishi mumkin. Tana qismlari o'rtasida shunday proporsiyalar bor, deb aytishadi, lekin ko'pincha ular o'rtasidagi farq nafaqat joylashuvi, balki tabiati va funksiyasi jihatidan shunchalik katta bo'ladiki, men ularni qanday taqqoslash mumkinligini tushunmayman va shu bilan birga, qanday qilib bu qismlardan proporsiyaga asoslangan ta'sir hosil bo'lishi mumkin. Go'zal tanalarda bo'yin oyog'ning kamari bilan muvofiq bo'lishi kerak, shuningdek, bilakning o'qlaridan ikki barobar katta bo'lishi kerak, deyishadi. Bunday fikrlarni ko'plab odamlarning asarlarida va gaplarida uchratish mumkin. Ammo oyog'ning kamari bilan bo'yinning qanday aloqasi bor yoki bu tana qismlarining bilak bilan qanday aloqasi bor? Albatta, bunday nisbatlar go'zal tanalarda mavjud bo'lishi mumkin; ayni vaqtda, albatta, ularni xunuk tanalarda ham topish mumkin, deb aytishi mumkin har bir kishi, agar bu ishni bajarishga qaror qilsa. Bundan tashqari, bu nisbatlar ba'zi eng go'zal odamlarda mukammallikdan juda uzoq bo'lishi mumkin. Siz inson tanasining har bir qismi uchun har qanday

proporsiyani belgilashingiz mumkin; va men tushunganim bo'yicha, rassom ularni qat'iy saqlashi kerak; lekin, shunga qaramay, agar u xohlaganida, juda xunuk figura yaratishi mumkin. O'sha rassom bu nisbatlardan sezilarli darajada og'ishib, juda go'zal figurani yaratishi mumkin". [11]

Olim I.V.Botvinko (2006) "Estetik harakteristika- bu tiriklikning borliq haqidagi tasavvuri –chegara, proporsiya, garmoniya, birlashish har xil ko'rinishda va birlikdaligi. Bu prinsip bioestetikaga xos va u tabiat va borliq bilan bog'liqdir". [12]

Sharq mutafakkirlari - Farobiy, Ibn Sino ham tabiat va inson uyg'unligini ma'naviy kamolotning asosi sifatida talqin qilganlar. Jaloliddin Rumiy tabiatni ilohiy qudratning oynasi sifatida talqin etdi. Uning fikricha, gulning go'zalligi ham, daryoning shovqini ham inson qalbiga ma'naviy ozuqa baxsh etadi. Islom falsafasida tabiat va inson uyg'unligi «axloqiy tarbiya» va «ma'naviy komillik» bilan uzviy bog'liq holda izohlandi.

Tabiatdagi jonli va jonsiz predmetlarning shakli va harakatining uyg'unligi uning foydalilik xususiyatiga bog'liqligi o'rganildi.

Insonlarning harakati uning ichki dunyosini ko'rsatib berishini o'zbek mutafakkirlari asarlari orqali isbot qilindi.

Bioestetik qadriyatlar insonning tabiatga bo'lgan munosabatlarining estetik va ma'naviy tomonlarini o'rganadigan yangi va qiziqarli sohadir. Ular tabiatning go'zalligi, ulug'ligi va o'ziga xosligini qadrlash va saqlashning asosiy tamoyillarini aniqlashga qaratilgan. Bioestetik qadriyatlar asosan estetika va ekologiya o'rtasidagi bog'liqlikni qamrab oladi. Inson tabiatning go'zalligini sezib, unga bo'lgan ehtirom va emotsional munosabatini shakllantiradi. Estetik qadriyatlar insoniyatning tarixiy va madaniy taraqqiyotida ham muhim ahamiyatga ega. Bioestetik qadriyatlar insonning ruhiy holatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tabiatdagi go'zallilik insonning emotsional xolatini yaxshilashga, stressni kamaytirishga va ruhiy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, bioestetik qadriyatlar jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni ham shakllantiradi. Tabiati saqlash va himoya qilish bioestetik qadriyatlarning asosiy vazifalaridan biridir, bu esa insonlarning ekologik ongilligini oshirishga qaratilgan. Bioestetik qadriyatlarni o'rganishdagi asosiy masalalardan biri - global isish va biologik xilma-xillik kamayishiga bioestetik qadriyatlarning ta'sirini aniqlashdir. Bioestetik qadriyatlar inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tushunishga yordam beradi. Ushbu qadriyatlar insonning estetik va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda, ruhiy salomatlikni yaxshilashda va tabiatni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Bioestetik qadriyatlarni tadqiq qilish va ularni amaliyotga joriy qilish kelajak avlodlarga tabiiy muhitning go'zalligini saqlab qolishda yordam beradi.

Tabiat va inson o'rtasidagi uzviy aloqalar xususida "Avesto" kitobida ham juda ko'plab misollarni uchratish mumkin. Tabiatga munosabat ikki jihati bilan nomoyon bo'ladi. Biri- tabiat

unsurlarini muqaddaslashtirish, ikkinchisi – insonni tabiat bilan moddiy yaratuvchilik munosabatlarini muqaddaslashtirish. “Yer, Suv, Havo, Olov muqaddas hisoblanib, ularni ifloslantirish taqiqlangan. Zardushtiylik dinining ta’limi bo’yicha daryo va ko’l suvlarini faqatgina ichishga ruhsat berilgan. Bunday suv manbaalarida cho‘milish, axlat tashlash, tupurish, hayvonlarni Eng qadimgi kitob «Avesto», unda tabiat muhofazasi bosh masala hisoblangan. Yer, Suv, Havo, Olov muqaddas hisoblanib, ularni ifloslantirish taqiqlangan. Zardushtiylik dinining ta’limi buyicha daryo va ko’l suvlarini faqatgina ichishga ruhsat berilgan. Bunday suv manbaalarida cho‘milish, axlat tashlash, tupurish, hayvonlarni cho‘mltirish man qilingan”. [13]

“Bugungi kunda har bir shaxs o’zini inson sifatida tabiatning boshqa mavjudotlaridan ajratadi, muayyan millat vaqili sifatida boshqa xalqlar va elatlardan farqini sezadi va, nihoyat, ahli bashar sifatida o’zga insonlar bilan umumiy jihatlari, Ona-sayyoraning ongli farzandi sifatida huquq va majburiyatlari haqida bosh qotiradi. Tabiat oldidida har bir alohida shaxs mas’uldir. Chunki u yer yuzidagi xalifadir, har bir elat va millatning o’zi yashab turgan tabiiy makon – Ona-Vatani oldida mas’ulligi bor, ammo, baribir biz yashab turgan Yer kurrasi yagona makon va maskanimiz ekan, hali basharning uning oldidagi mas’ulligi ham yaxlitdir”. [14]

Zamonaviy jamiyatda ekologik muammolarning keskinlashuvi bioestetik qadriyatlarga bo’lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. Insonlar tabiat bilan uyg’unlikda yashash, uning go’zalligini saqlab qolish zaruriyatini anglab yetishmoqda. Bioestetika ekologik tarbiya, landshaft dizayni, ekoturizm kabi sohalarda keng qo’llanilmoqda.

**Xulosa.** Bioestetik qadriyatlar insonning tabiat bilan o’zaro munosabatlarining uzoq va murakkab tarixi davomida shakllangan. Bu qadriyatlar insonning ma’naviy dunyosini boyitadi, estetik va ekologik ongini rivojlantiradi. O’zbekiston xalqining tabiatga bo’lgan munosabatida bioestetik qadriyatlarning chuqur ildiz otganini milliy she’riyat, san’at va arxitektura asarlaridan kuzatish mumkin. Hozirgi davrda bioestetika nafaqat nazariy, balki amaliy yo’nalish sifatida ham ahamiyatli. Tabiat go’zalligi orqali insonda estetik his va ma’naviy immunitetni kuchaytirish, milliy merosdagi bioestetik g’oyalarni zamonaviy ta’lim jarayonlariga tatbiq etishlozim.

Bioestetik qadriyatlar inson va tabiat o’rtasidagi o’zaro umumiylikni qadrlashga asoslanadi. Bioestetika insonning tabiatni zavq orqali kuzatishi, balki uning o’zgarishlarini qalban his qilish, tushunish va qadrlash orqali emotsional va estetik munosabatlarni rivojlantirishini o’rganadi. Tabiatdagi turli xil ekosistemalar, biologik formalar estetik qadriyatlar sifatida ko’rib chiqiladi va turli ekosistemalarni va ularning o’zaro bog’liqligini san’at, adabiyot va fotografiya orqali namoyon qilish tendensiyasi kuzatiladi. Bioestetika nafaqat estetik, balki axloqiy qadriyatlarni ham shakllantirishga yordam beradi, insonning estetik bahosi uning atrof muhitga munosabatini va himoya qilish mas’uliyatini rivojlantiradi, shuningdek, ekologik obrazlar orqali insonning tabiatga mas’uliyatini kuchaytirish va ekologik ongni shakllantirish tendensiyasi ham namoyon

bo'ladi. Global isish, plastik chiqindilar va yadroviy qurol kabi hodisalar inson tajribasidan tashqari bo'lgan holda ham estetik qarashda aks etadi, bu orqali insonning tabiat va global jarayonlar bilan bog'liqligi konseptual va estetik qiymatga ega bo'ladi. Shu bilan birga bioestetika tabiatni subyektiv hissiyot va obyektiv faktlarning uyg'unligi sifatida ko'radi, tabiatning faollik va o'zgaruvchanligini san'at, adabiyot va media orqali his qilish, insonning tajribasi bilan tabiatning fenomenal va metafizik tomonlari orasidagi bog'lanishni ko'rsatish tendensiyasi kuzatiladi. Shuningdek, bioestetik qadriyatlar zamonaviy ekologiya va inson ongiga yangi qirralar ochadi, estetik, axloqiy va intellektual jihatdan insonning tabiat bilan munosabatini mustahkamlaydi va estetik tajriba orqali inson global ekologik jarayonlarni his qilib, tabiatning go'zalligi va qiymatini qadrlay boshlaydi..

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Арасту «Риторика» («Хитоба») Янги аср авлоди.2011 (Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Т. Янги аср авлоди 2004. 22-бет).
2. Арасту. Ахлоқи кабир. Таржимонлар Зоҳир Аълам ва Урфон Отажон. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2015 йил. - 352 б.
3. Гегель. Д. К. Богатырёв. Богатырёв Дмитрий Кириллович, доктор философских наук, профессор.
4. Ницше Ф. Полное собрание сочинений: в 13 т. / Ин-т философии РАН. Т. 11: Черновики и наброски 1884–1885 гг. / пер. с нем. В. Д. Седельника; науч. ред. А. Г. Жаворонков. М.: Культурная революция, 2012. 688 с.
5. Кант, И. Антропология с прагматической точки зрения / И. Кант // Кант, И. Соч. : в 6 т. – Москва : Мысль, 1966. – Т. 6. – С. 349–588.
6. Мельник Наталья Борисовна.ФИЛОСОФИЯ ПРИРОДЫ И ЧЕЛОВЕКАЖ.-Ж. РУССО КАК ОСНОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЕСТЕСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ. Екатеринбург – 2002
7. Naturalizing Heidegger: His Confrontation with Nietzsche, His Contributions to Environmental Philosophy. State University of New York Press
8. Феликс Гваттари. Три экологии. Феликс Гваттари, «К новой экологической демократии», 1992 г.
9. Глобал исиш ва антропоген ифлосланиш шароитида тушуниш учун англо-американлик файласуф Тимоти Мортон «гиперобъект» тушунчасини илм-фанга киритди. Гиперобъектларни эстетик тажриба орқали ҳис қилиш ва тушунишни визуал кўринишларини жорий этди.
10. Тимоти Мортон «Гиперобъекты. Философия и экология после конца мира»

11. Бёрк Эдмунд. Философское исследования о происхождение наших людей возвышенного и прекрасного. – Москва: Искусство. 1979. – 123с.
12. [www.bioestetika.ru](http://www.bioestetika.ru)
13. Ҳамиджон Ҳомидий.Авестодан Шохномага.-Т.:2007
14. М.Имомназаров. Миллий маънавиятимизнинг такомил босқичлари. Тошкент.: Шарқ.1996.